



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON MILLIY  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**“SHAXS INTEGRATIV  
RIVOJLANISHI PARADIGMASIDA  
ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING  
DOLZARB MUAMMOLARI”**

**“АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОВРЕМЕННОЙ  
ПСИХОЛОГИИ В ПАРАДИГМЕ  
ИНТЕГРАТИВНОГО  
РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ”**

**“CURRENT PROBLEMS OF  
MODERN PSYCHOLOGY IN  
THE PARADIGM  
OF INTEGRATIVE PERSONAL  
DEVELOPMENT”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI**

**2026-yil 22-Aprel**

**“Shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari”**

UO‘K: 152.3

“Shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami (22-aprel 2026-yil) – T.: Toshkent 2026. 2005-b.

Mazkur to‘plamga 2026-yil 22-aprel kuni O‘zMPU Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta‘lim fakulteti “Psixologiya” kafedrasida “Shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ma‘ruza materiallari kiritilgan. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamida psixologiya sohasidagi respublikamizdagi taniqli olim va mutaxassislar, o‘rta umumta‘lim maktablarining o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrlar hamda iqtidorli talabalarning amaliy psixologiya, shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammosi va uning yechimlari bo‘yicha yangicha yondashuvlar, amaliy yechimlarga bag‘ishlangan maqolalari o‘rin olgan.

<b>Ma’sul muharrir:</b>	<b>Tillashayxova X.A.</b>	Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya” kafedrasida v.b professori, psixol.f.d.
<b>Tahrir hay’ati a’zolari:</b>	<b>Akramova F.A.</b>	Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya” kafedrasida professori psixol.f.d.
	<b>Juraeva S.N.</b>	Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya” kafedrasida professori psixol.f.d.
	<b>Abdullayeva R.M.</b>	Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya” kafedrasida dotsenti, psixol.f.n.
	<b>Jurakulova D.Z.</b>	Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya” kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
<b>Texnik ma’sul:</b>	<b>Konratbaeva A.B.</b>	Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
	<b>Toshmatov B.E.</b>	Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
	<b>Teshayev S.S.</b>	Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi
<b>Taqrizchilar:</b>	<b>Mirzayeva F.O.</b>	Nizomiy nomidagi O‘zMPU Pedagogika” kafedrasida mudiri, p.f.d., professor
	<b>Narmetova Yu.K.</b>	Toshkent davlat tibbiyot universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti psixol.f.d.

To‘plamga kiritilgan maqola va tezislardagi dalil, raqam va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’uldirlar.

Anjuman materiallari O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2026 yil 24-apreldagi 4-sonli bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan.

## YALPI MAJLIS

### KIRISH

Assalomu alaykum aziz mehmonlar, tadqiqotchi-olimlar va hamkasblar!

Bugun sizlarni O'zbekiston milliy pedagogika universitetida o'tkazilayotgan **“Shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ko'rib turganimiz bizga katta mamnuniyat bag'ishlaydi. Bu ilmiy-amaliy konferensiyada xorij va respublikamiz olimlari ishtirok etayotgani ilm-fan, ta'lim sohasidagi hamkorlik munosabatlarining tobora mustahkamlanib borayotganidan darak beradi.

Bugungi kunda inson omiliga e'tibor, shaxs kamoloti, uning intellektual, ma'naviy, ijtimoiy va psixologik salohiyatini ro'yobga chiqarish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi zamonaviy psixologiya oldiga yangicha yondashuvlarni talab etuvchi dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Shu nuqtai nazardan, shaxs rivojlanishiga integrativ yondashuv masalasi bugungi ilm-fan taraqqiyotining muhim yo'nalishlaridan biridir.

Mazkur konferensiya turli mamlakatlardan tashrif buyurgan yetuk olimlar, mutaxassislar va yosh tadqiqotchilarni yagona ilmiy maydonda birlashtirib, zamonaviy psixologiyaning nazariy hamda amaliy muammolarini muhokama qilish, ilg'or tajribalarni almashish va istiqbolli ilmiy hamkorliklarni yo'lga qo'yish uchun qulay platforma bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi anjumanda shaxs rivojlanishining psixologik mexanizmlari, ta'lim va tarbiya muhitida psixologik jarayonlar, ijtimoiylashuv omillari, oilaviy munosabatlar psixologiyasi, stress va emotsional salomatlik, psixodiagnostika, konsultativ xizmatlar hamda raqamli muhitning inson psixikasiga ta'siri kabi dolzarb masalalar yuzasidan ilmiy ma'ruzalar tinglanadi.

Alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda yurtimizda ilm-fan va ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning intellektual salohiyatini oshirish, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur konferensiya ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan muhim ilmiy-amaliy tadbirlardan biridir.

Barchangizga mustahkam sog'lik, ilmiy faoliyatingizda ulkan zafarlar, ushbu konferensiya ishiga esa samarali va mazmunli muvaffaqiyat tilayman. Konferensiya ishiga omad tilagan holda, barchangizga yana bir bor tashakkur bildiraman.

**Alisherov Farxod Alisherovich**

*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
texnika fanlari nomzodi (PhD)*

## OLIV O'QUV YURTI O'QITUVCHILARINING INNOVATSION FAOLIYATIDA KOPING STRATEGIYANING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI

**Almardanova Salomat Bobonazarovna**

Termiz davlat universiteti  
psixologiya kafedrasida dotsenti,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatida koping strategiyaning ijtimoiy psixologik xususiyatlariga tegishli bo'lgan psixologik sifatlar, innovatsion faoliyatda koping strategiyaning indikatorlari namoyon bo'lishiga oid ma'lumotlar yoritib berilgan. Pedagoglarda moslashuvchanlik, qiyinchiliklarni yengish strategiyalari, ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlarining innovatsion faoliyatga nisbatan yondoshuvlari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** pedagog shaxsi sifatleri, innovatsion faoliyat, koping strategiya, ijtimoiy psixologik xususiyatlar, psixologik sifatlar, koping strategiyaning indikatorlari.

Jamiyatda yuz berayotgan shiddatli rivojlanishlar, axborotlar oqimining inson ruhiyatiga ta'siri natijasida ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda stressni boshdan kechirishga sabab bo'lmoqda. Insonlar stressni yumshatish uchun mo'ljallangan xatti-harakatlarni tanlash orqali yengish strategiyalaridan foydalanishni amalga oshiradilar. Qiyinchiliklarni yengishga yo'naltirilgan harakatlar o'z navbatida xulq-atvor strategiyalari bo'lib, «yengish» deb ataladi. R. Lazarus amerikalik psixolog, shaxs va hissiyot psixologiyasi, psixologik stress va moslashuv hamda psixologik salomatlik yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis bo'lib, emotsional holatlarni tadqiq qilishda keng qo'llaniladigan bir nechta shkala va so'rovnomalar ishlab chiqqan. Shuningdek, ushbu «yengish» atamasini birinchi marotaba Richard Lazarus (inglizcha Richard Lazarus) tomonidan kiritilgan. Atamani izohlash mobaynida Lazarus yengishning ikkita asosiy funktsiyasini aniqlab tahlilini amalga oshirgan. [4]

Birinchi vazifasi- hissiy holatlarni tartibga solish;

Ikkinchi vazifasi- paydo bo'layotgan stress manbasini yo'q qilish.

R. Lazarus bu vazifalarning amaliy tahlilidan kelib chiqib, ushbu vazifalarning bajarilish holatiga ko'ra yengishning ikki turini aniqlagan:

1) Hissiyotga yo'naltirilgan ushbu birinchi turga ijobiy qayta baholashni hamda inkorni o'z ichiga oladi.

2) Muammoga yo'naltirilgan ikkinchi turida esa harakatlarni rejalashtirish va qarama-qarshilikni o'z ichiga olishini bayon qiladi. [5]

Hozirgi kunga kelib tadqiqotchilar va psixolog amaliyotchilarning yengish xatti-harakatlarining o'zgaruvchanligi va samaradorligini o'rganish va tahlil qilishga qiziqishari ortganligini inobatga olishimiz mumkin. Jumladan, bu mavzu professional jihatdan o'ziga xos kontekstda, ayniqsa oliy ta'lim muassasalarida pedagoglari, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga yordam berishga qaratilgan holda olib borilishi kuzatiladi. Bu kabi tadqiqotlar natijasida o'ziga xos jismoniy va hissiy qiyinchiliklarni bartaraf qilish davomida o'qituvchilar ikkala yengish turidan ham foydalanishlari aniqlangan. Lekin nisbatan o'qituvchi kasbi egalarida hissiyotga yo'naltirilgan yengish strategiyalaridan foydalanish ustunlik qilishi kuzatilgan.

Hissiyotga yo'naltirilgan va muammoga yo'naltirilgan yengish strategiyasidan keng foydalanilib, vaziyatni idealizatsiya qilish, muammoga konstruktiv echim topishga harakat qilish,

muammoni ijobiy qabul qilishga harakat qilish, muammoni ijobiy qayta shakllantirish yoki inkor qilishga harakat qilish kabilarda namoyon bo'ladi. Yengish strategiyalarining bu kabi qo'llanilishining har tomondan o'rnatilgan xulq-atvor ko'rinishlarining hammasini ham samarali deb baholanmaydi. Tadqiqotlardan olingan natijalarga ko'ra «yengish» strategiyasining ikkala turi ham ya'ni hissiyotga yo'naltirilgan va muammoga yo'naltirilgan xulq-atvor birikmasi umumiy hissiy charchoq xavfini kamaytiradi, deb qabul qilinadi.

Ammo, yuqorida keltirilgan tadqiqotning tahliliga ko'ra o'qituvchilarning jismoniy salomatligi, ruhiy farovonligini saqlash uchun qaysi turdagi yengish strategiyalarining birikmasi eng samarali ekanligi aniqlash muammo sifatida qabul qilinib, «yengish» strategiyasining muhim elementi sifatida ishdan qoniqish hissi deb belgilanganligi bilan ajralib turadi.

Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining ishdan qoniqish hissining boshdan kechirilishini o'rgangan tadqiqotchilar qatorida psixologiya fanlari doktori, professor Howard Weiss ishdan qoniqish hissi tushunchasini quyidagicha ta'riflaydi: " ishdan qoniqish bu- odamlarning o'z ishlari haqida ijobiy yoki salbiy baholash xulosalaridir". [6]

Psixolog tadqiqotchi G Baluyosning fikriga ko'ra ishdan qoniqish - bu psixologik, fiziologik va atrof-muhit sharoitlari va omillarining sub'ektiv bahosi bo'lib, ular birgalikda ishga ijobiy munosabatni ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida ish samaradorligiga oid umumiy farovonlikni oshiradi. [2]

Yana bir tadqiqotchi U. Klusmanning ta'kidlashicha, zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga qaramay, o'qituvchilar orasida ishdan qoniqishning yuqori darajasini saqlab qolish muhimdir, chunki bu ko'rsatkich talabalarning motivatsiyasi va o'zlashtirishiga ta'sir qiladi. [3]

2011 yilda o'qituvchining ishdan qoniqish va o'qituvchilik kasbini tark etishga sabab bo'ladigan turtkilar: maktab sharoiti bilan munosabatlar, o'ziga tegishlilik hissiyoti va hissiy charchoq omillarini o'rgangan tadqiqotchilar E.M. Skaalvik va S.Skaalviklarning xulosalariga ko'ra ishdan qoniqish hissi sifatida quyidagilarni ko'rsatadilar:

- o'qituvchilarda ishdan qoniqishning asosiy manbalari borligi;
- boshqalarning hayotida o'zgarishlar qilish motivi;
- shu kasbga va ishga tegishlilik hissi;
- ishdan kelib chiqadigan ijobiy his-tuyg'ularning boshdan kechirilishi kabilarni kiritadilar.

[5]

Oliy ta'lim muassasasi pedagoglarida ta'lim sohasining istiqbollari va jamiyatning o'zgaruvchan ehtiyojlariga yetarlicha moslashmasligi tobora yaqqol ko'rinib borayotganligi sababli, o'qitishga, oliy ta'limda mavjud ta'lim yo'nalishlari biriruvchilarini, mutaxassislarini tayyorlashda yangi talablarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham, kelajakdagi mutaxassislarda professional fikrlash, faollik va o'zini o'zi boshqarish tashabbuslarini rivojlantirish zarurati aniq bo'lib bormoqda.

Shu ma'nodagi izlanishlarni olib borgan eronlik tadqiqotchilar S.Afshar va M.Doosti o'zlarining "Ishdan qoniqish yoki norozilikning eronlik ingliz tili o'qituvchilarining ish faoliyatiga ta'sirini o'rganish" nomli 2016 yilda e'lon qilgan maqolalarida ishdan qoniqishning tashqi manbalarini o'rganganlar. Ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra ishdan qoniqishning tashqi manbalariga mavqei, maqom, karera, ish haqi hamda ma'muriyat va hamkasblarning qo'llab-quvvatlash kabi omillarini kiritganlar. [1]

Yuqorida sharhlari keltirilgan tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, ishdan qoniqishning his qilinishi oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining innovatsion faoliyatida samarali omil sifatida ta'sir kuchiga egaligi bilan ajralib turadi. Bu kabi ijobiy ta'sir qiluvchi manbalarni inobatga olgan holda pedagoglarda hissiyotga yo'naltirilgan va muammoga yo'naltirilgan koping strategiya

indikatorlarini oshirishning mavaffaqiyatli usuli sifatida moslashuvchanlik, kurashish xatti-harakatlarini rivojlantirishga ko'proq ahamiyat berishning dolzarbligi asoslanadi. Shuningdek, o'qituvchilarda ularning ehtiyojlarini qondiradigan muayyan kurashish strategiyalari to'plami mavjud bo'lganda koping strategiyaning ijobiy va samarali xulq-atvor harakatlarining tanlanishi yuz beradi deb taxmin qilish mumkinligi bu borada yangi tadqiqotlar zaruriyatini ochiqlaydi.

Tadqiqotlar davomida respondentlar haqida umumiy demografik ma'lumotlar, qiyinchiliklarni yengish strategiyalari, ishdan qoniqish, masofaviy ta'lim texnologiyasi, ta'lim muassasasi tomonidan qo'llab-quvvatlash shakllari, o'qituvchilar uchun o'quv mashg'ulotlari va amaliy seminarlarni tashkil qilinishini tahlil qilish kabilarga e'tibor berilishi muammoni o'rganilishida asoslidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Afshar H. S., Doosti M. Investigating the impact of job satisfaction/dissatisfaction on Iranian English teachers' job performance //Iranian Journal of Language Teaching Research. Vol. 4. №. 1. P. 97-115.
2. Baluyos G., Rivera H., Baluyos, E. Teachers' job satisfaction and work performance //Open Journal of Social Sciences. Vol. 7. №. 08. P. 206. DOI: 10.4236/jss.2019.78015.
3. Klusmann U. et al. Engagement and emotional exhaustion in teachers: Does the school context make a difference? //Applied Psychology. Vol. 57. P. 127-151.
4. Lazarus R. S. Psychological stress and the coping process. P.466
5. Lazarus R. S., Folkman S. Stress, appraisal, and coping. Springer publishing company, 1984. P. 444
5. Skaalvik E. M., Skaalvik S. Teacher job satisfaction and motivation to leave the teaching profession: Relations with school context, feeling of belonging, and emotional exhaustion //Teaching and teacher education. Vol.27.№.6.P. 1029-1038.
6. Weiss H.M. Deconstructing job satisfaction: Separating evaluations, beliefs and affective experiences //Human resource management review. Vol.12.№.2.P. 173-194.

### **GLOBAL BILIM MAYDONIDA TALABA-YOSHLARINING MUNOSIB ISHTIROKINI TA'MINLASHDA STEAM TA'LIMINING AHAMIYATI**

**Adilova Dilorom Nurillayevna**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti "Pedagogika" kafedrasida dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XXI asrning global bilim maydoni, raqamli iqtisodiyot va innovatsion mehnat bozori sharoitida Yangi O'zbekiston yoshlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) ta'limi qanday strategik ahamiyat kasb etishi ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, mavzu doirasida STEAM yondashuvining nazariy asoslari, kompetensiyalar tizimi, ta'lim jarayonidagi fanlararo integratsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy natijalari, jahon tajribasi (Finlandiya, AQSH va boshqa davlatlar) hamda milliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan modelning zarurati bayon qilinadi.

## IQTIDORLI BOLALARNING TASHKILOTCHILIK QOBILIYATINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI DIAGNOSTIKASI

*Abdullayeva Zuhro Ismoilovna.*

*Termiz davlat universiteti psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtidorli bolalarning ota-onalari bilan suhbatlashganda ularning farzandlarining barcha sohalarda birinchi bo'lishi kabi hohishlarining guvohi bo'lishi mumkin. Iqtidorli bolaning intellektual yoki harakat ehtiyojlari qondirilmasa, bu bolaning his-tuyg'ulariga putur yetkazishi va nevroz holatlariga olib kelishi mumkinligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar.** Iqtidor, qobiliyat, ota-ona, tashkilotchilik, intellektual, muloqot, refleksiya.

**Kirish.** Odamlarning o'quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Har bir normal odam o'zining aqli bo'lishini xohlaydi, "Men aqliman" demasa-da, qilgan barcha ishlari, gapirgan gapi, yuritgan mulohazasi bilan aynan shu sifat bilan odamlar uni maqtashlarini xohlaydi. "Aqlsiz, nodon" degan sifat esa har qanday odamni, hattoki, yosh bolani ham hafa qiladi. Yana shu narsa xarakterliki, ayniqsa, bizning sharh haqlarida biror kimsaga nisbatan "o'ta aqli" yoki "o'ta nodon" iboralari ham ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o'rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz: "Falonchining o'g'li anchagina aqli bo'libdi, narigining farzandi esa biroz nodon bo'lib, ota-onasini ko'ydirayotgan emish" degan iboralar aslida "aqllilik" kategoriyasi insonning yuragiga yaqin eng nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi.[3]

Olimlar qobiliyatlarining rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va hayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar. Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatlari yo'nalishini ochib berishdir. Shuning uchun ham hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmoqda.


Qobiliyatlarni o'lchash muammosi XIX asrning oxiri - XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi.[2] Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganildi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o'rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiy mohiyati shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar-topshiriqlar batareyasidan iborat bo'ladi. Masalan, Ayzenkning mashhur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo'lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi. Bu yerda vaqt mezonini muhim hisoblanadi. Boshqa mualliflar sekin ishlash - qobiliyatsizlik belgisi emas deb, boshqacharoq usullarni o'ylab topganlar. Ko'pchilik olimlar uchun, masalan, rus olimlari uchun

qobiliyatni o'lashning ishonchli mezonlari - bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o'zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir.

**“Kommunikativ qobiliyatni aniqlash metodikasi” ko'rsatkichlari**

**1.jadval.**

Respondentlar n=60	Kommunikativ qobiliyat darajalari		
	Yuqori	o'rta	Past
<b>Soni:</b>	<b>17</b>	<b>25</b>	<b>18</b>
<b>Foizi:</b>	<b>28%</b>	<b>42%</b>	<b>30%</b>



**1.rasm. Kommunikativ qobiliyatni aniqlash metodikasi” ko'rsatkichlari.**

Tadqiqot ishimizda iqtidorli bolalarning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini o'rganish bo'yicha "Iqtidorli bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini aniqlash testi", "Iqtidorli bolalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash testi", hamda "Qobiliyatlar yo'nalishlarini aniqlash" metodikalari asosida tadqiqotlar olib bordik. Dastlab, diagnostik bosqichda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasi past bo'lgan o'quvchilarni aniqlab oldik. Har bir qo'llanilgan psixodiagnostik metodika iqtidorli bolalarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyati qay darajada rivojlanganligi, "Qobiliyatlar yo'nalishlarini aniqlash" metodikasi esa iqtidorli bolalarning sakkizta yo'nalish bo'yicha iqtidorligini aniqlash maqsadida olib borildi. Natija quyidagidek bo'ldi.


Bizning tadqiqot ishimizda iqtidorli bolalar qobiliyati ayniqsa, kommunikativ qobiliyati yuqori bo'lishi aytilgan edi, ammo olib borgan tajriba sinov ishlarimiz iqtidorli bolalar guruhida kommunikativ qobiliyati yuqorilar bilan birga o'rtacha va past darajadagilari ham mavjudligini ko'rsatdi.

Shuningdek, iqtidorli bolalarning tashkilotchilik qobiliyatini o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimizda ham o'ziga xoslik, ya'ni tashkilotchilik qobiliyati yuqorilar bilan birga tashkilotchilik qobiliyati o'rtacha va past darajadagilari ham mavjudligi va ular ko'pchilikni tashkil etishi ma'lum bo'ldi.<sup>[1]</sup>

**2.jadval.**

Respondentlar n=60	Tashkilotchilik qobiliyati darajalari		
	yuqori	o'rta	Past
<b>Soni:</b>	<b>13</b>	<b>26</b>	<b>21</b>
<b>Foizi:</b>	<b>21%</b>	<b>43%</b>	<b>36%</b>

**“Tashkilotchilik qobiliyatni aniqlash metodikasi” ko'rsatkichlari**



## 2.Rasm.“Tashkilotchilik qobiliyatni aniqlash metodikasi” ko‘rsatkichlari.

Iqtidorli bolalarning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari diagnostikasi zamonaviy iqtidorli ta’lim-tarbiyasida bu kabi hususiyatlarning rivojlanishiga e’tiborning kamligi, shart-sharoitlarning yetarli darajada har bir iqtidorli bolalarning individualligini xisobga olgan xolda yaratilmaganligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, iqtidorli bolalarni erta aniqlash, ularni tarbiyalashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning talabi ekanligini har bir pedagog bilishi va chora tadbirlar rejasini tuzgan xolda ular bilan ish olib borishi zarur.

Iqtidorli bolalarning qobiliyatini o‘rganish maqsadida tadqiqotimizda qo‘llanilgan navbatdagi metodika “Qobiliyat sohalarini aniqlash testi.” edi.


Demak, mazkur test bo‘yicha iqtidorli bolalar qobiliyatining asosiy yo‘nalishini aniqlab olish mumkin. Tadqiqot ishimizda “Qobiliyat sohalarini aniqlash testi.” dan foydalanib 60 nafar iqtidorli bolalarda tajriba o‘tkazdik.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, respondentlarda asosan lingvistik va kommunikativ qobiliyatlar ko‘pchilikni tashkil etdi. Darhaqiqat, iqtidorli bolalarda asosan kommunikativ qobiliyatlilik kuzatiladi, ammo, alohida sohalarga ularni maqsadli yo‘naltirish bugungi kunda ijtimoiy muammo bo‘lib turibdi.

### Respondentlar qobiliyatining yo‘nalishlari

3.jadval.

Qobiliyat yo‘nalishlari	A	B	C	D	E	F	G	H
Soni:	19	6	7	6	4	7	11	7
Foizi:	31,6%	10%	11,7%	10%	7%	11,7%	18%	11,7%



3.rasm. Iqtidorli bolalar qobiliyatining yo'nalishlari.

Mazkur metodika natijalari ham iqtidorli bolalarning 18%da kommunikativ qobiliyatlarning namoyon bo'lganligi ma'lum qildi.

Diagnostik tadqiqot ishimiz natijalari asosida iqtidorli bolalarning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini alohida pedagogik-psixologik dasturlar asosida rivojlantirish lozimligi haqida xulosa chiqardik.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi.

Darhaqiqat, iqtidorli bolalarda asosan kommunikativ qobiliyatlilik kuzatiladi, ammo, alohida sohalarga ularni maqsadli yo'naltirish bugungi kunda ijtimoiy muammo bo'lib turibdi.

Iqtidorli bolalarning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari diagnostikasi zamonaviy iqtidorli ta'lim-tarbiyasida bu kabi hususiyatlarning rivojlanishiga e'tiborning kamligi, shart-sharoitlarning yetarli darajada har bir iqtidorli bolalarning individualligini hisobga olgan xolda yaratilmaganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, iqtidorli bolalarni erta aniqlash, ularni tarbiyalashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning talabi ekanligini har bir pedagog bilishi va chora tadbirlar rejasini tuzgan xolda ular bilan ish olib borishi zarur.

Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatlari yo'nalishini ochib berishdir. Shuning uchun ham hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Abdullayeva, Z. (2026, March). Psychological features of working with gifted. Students. In *International Conference on Social Sciences & Humanities* (Vol. 2, No. 3, pp. 36-39).
2. M. Maxsudova Muloqot psixologiyasi o'quv qo'llanma Toshkent «Turon-Iqbol» 2006.
3. E. G'oziyev Umumiy psixologiya darslik. Toshkent -2010.

<b>MUNDARIJA</b>		
<b>KIRISH</b>		
1	<b>Акрамова.Ф.А.</b> <i>Оилага психологик хизмат кўрсатишнинг асосий муаммолари</i>	3
2	<b>Жолдошева.А.О., Турдуева Д.К.</b> <i>Насилие в семье и его последствия</i>	7
3	<b>Бегматов.А.С.</b> <i>Интегратив таълим- шахс шаклланишнинг пойдевори</i>	12
4	<b>Абдурашиитов.Н.Ф.</b> <i>Взаимосвязь саморегуляции поведения и продуктивной социальной включенности подростков</i>	15
5	<b>Колесник К.А., Ешенкулова Э.Б., Мауленбердиева Г.Б.</b> <i>Кибербуллинг как современная социально-психологическая проблема</i>	28
6	<b>Эргашев.П.С.</b> <i>Об одном подходе к измерению психологической зрелости</i>	31
7	<b>Qodirov U.D.</b> <i>Konsagvin nikohlarning ijtimoiy-psixologik determinantlari</i>	34
8	<b>Vafayev M.M.</b> <i>G.Bardiyerning tolerantlik uch kompleksli modeli tavsifi</i>	39
9	<b>Narmetova Y.K.</b> <i>Psixosomatik kasalliklarida bemorning psixoemosional xususiyatlari va hayot sifatining o'zaro bog'liqligi</i>	41
<b>1-sho'ba: Zamonaviy psixologiyada shaxs rivojlanishi va integrativ yondashuvlar</b>		
1	<b>Ибрагимова.Г.Н</b> <i>Проблемы социально-психологической адаптации студентов в высшем учебном заведении</i>	46
2	<b>Тиллашайхова Х. А</b> <i>Особенности социально-психологического благополучия студентов различных профилей подготовки</i>	51
3	<b>Nazarov.A.M.</b> <i>Yangi o'zbekistonda yoshlar salohiyatini rivojlantirish orqali innovatsion jamiyat barpo etishning ustuvor yo'nalishlari</i>	56
4	<b>Esanov M. X.</b> <i>Oliy ta'limda pedagogik kasbiy tayyorgarlikning psixologik modellari</i>	61
5	<b>Mirzayeva F.O., Farxodova D.M.</b> <i>Bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda psixologik omillarning o'rni</i>	67
6	<b>Тиллашайхова Х. А , Ахмадова.Д</b> <i>Влияние детско-родительских отношений на развитие ребенка</i>	70
7	<b>Жолдошбаев Д. А.</b> <i>Особенности психологической защиты девиантных подростков</i>	74
8	<b>Жолдошбаева А.Д.</b> <i>Формирование социально приемлемого поведения у детей младшего школьного возраста</i>	77
9	<b>Кадирова Н. А.</b> <i>Адаптация высшего образования к условиям цифровизации</i>	80
10	<b>Садикова Р. С.</b> <i>Осиладаги зўравонликнинг фарзанд тарбиясига психологик таъсири</i>	84
11	<b>Медетова Р.М., Пирматова М.С.</b>	87

	<i>Актуальные проблемы изучения поэтики художественных произведений (С точки зрения психологии)</i>	
12	<b>Qodirov O.S.</b> <i>Tarbiyasi qiyin o'smirlar muammosini bartaraf etishning samarali psixologik texnologiyalari</i>	89
13	<b>Jo'rayeva S.N., Mardonova X. Sh.</b> <i>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuzaga keladigan muammolar va ularga psixologik jihatdan yondashuv</i>	95
14	<b>Abdullayeva R.M., Xakimjonova G. A.</b> <i>Bolalar psixologiyasida musiqaning o'rni</i>	98
15	<b>Xalikova G.T.</b> <i>Til o'rganishda o'yin asosidagi va interfaol metodlarning integratsiyasi psixologik va texnologik yondashuv</i>	101
16	<b>Фарфиева К.А.</b> <i>Интернет коммуникация как фактор формирования научного мышления</i>	104
17	<b>Xalmuratova D.A.</b> <i>Perfeksionizm va o'zini past baholash: talabalarda norasolik kompleksining psixologik omili sifatida</i>	108
18	<b>Konratbaeva A.B., Tursunmurodova S.A.</b> <i>Kichik maktab yosh davrida ingliz tilini o'rganishda xotira jarayonining ahamiyati</i>	111
19	<b>Ravshanov S.A., Burxonboyeva B.E.</b> <i>Shaxs integration rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari</i>	113
20	<b>Nuriddinov R.S.</b> <i>"Qutadg'u bilig" asarida shaxs psixologik salomatligi muammosining yoritilishi</i>	116
21	<b>Ахматова З.Е.</b> <i>Факторы в управлении личностными эмоциональными процессами</i>	120
22	<b>Nuraliyeva D.M.</b> <i>Millatlararo nikohlarning ijtimoiy-psixologik tabiati</i>	122
23	<b>Abdug'aniyeva D.A.</b> <i>Destruktiv emotsional holatlar kontekstida agressiya va xavotir interaksiyasi</i>	125
24	<b>Azizbek U.H.</b> <i>Yosh sportchilarning start oldi hissiy emotsional holatlarini o'rganish psixologik tadqiqot muammosi sifatida</i>	127
25	<b>Fatidinova D.M.</b> <i>Onlayn qimor o'yinlariga tobe shaxslarda oilaviy inqirozining psixologik ko'rinishlari</i>	133
26	<b>Kozimov S.M.</b> <i>Talabalar prokrastinatsiyasini kamaytirishda metakognitiv ko'nikmalarning roli</i>	136
27	<b>Kozimov S.M.</b> <i>Talabalarda o'z-o'zini boshqarish kompetensiyalarining prokrastinatsiyaga ta'siri</i>	139
28	<b>Миркаилова М.С.</b> <i>Социально-психологическое благополучие личности в современном мире.</i>	142
29	<b>Миркаилова Н. М.</b> <i>Психологические последствия заикания у детей и взрослых</i>	146
30	<b>Abdiraxmonova Ch.A.</b> <i>Personality development in modern psychology and integrative approaches</i>	151

31	<b>Tursunova M.M.</b> <i>Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari</i>	154
32	<b>Otamuratova S.A.</b> <i>Approaches to the diagnostics of signs of youth subculture in a teenager group</i>	158
33	<b>Sharofiddinova Z.Sh.</b> <i>Sanogen tafakkurni tarkibiy komponentlarini rivojlantirishning psixologik asoslari</i>	160
34	<b>Назарова Д.У.</b> <i>Формирование у детей дошкольного возраста навыков поведения и социальной адаптации</i>	163
35	<b>Исмоилова А.А.</b> <i>Ихтисослаштирилган мактаб ва синфларда иктидорли болаларни танлаб олиш ва тарбиялаш</i>	168
36	<b>Qalandarova G.M.</b> <i>O'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda psixologik omillarining o'rni</i>	170
37	<b>Arzjev A.K.</b> <i>Milliy urf-odatlarining shakllanishi va rivojlanishida oiladagi otionalarning o'rni</i>	173
38	<b>Arzjev A.K.</b> <i>Raqamli madaniyat va uning psixologik xususiyatlari</i>	176
39	<b>Konratbaeva A.B.</b> <i>Ingliz tilini o'rganish jarayonida tafakkurning shakllanishi va rivojlanishining psixologik asoslari</i>	178
40	<b>Arzjev A.K.</b> <i>Ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar xulq-atvoriga ta'siri</i>	182
41	<b>Расулова Л.</b> <i>Сочетание традиционных и инновационных ценностей в аксиологии</i>	185
42	<b>Abdixalilov O'.U., Aliyev A.S.</b> <i>Shaxs rivojlanishini o'rganishda integrativ yondashuvlarning ahamiyati</i>	187
43	<b>Ashurova Sh.</b> <i>Abu iso muhammad at-termiziy ta'limoti asosida zamonaviy ta'limda talabalar axloqiy ongini rivojlantirish</i>	191
44	<b>Abduraximov D.A.</b> <i>Zamonaviy psixologiyada o'smir shaxsi rivojlanishi va nevroitik holatlarni integrativ yondashuv asosida tahlil qilish</i>	194
45	<b>Khamidova S.N., Tojiboeva.M., Toshpo'Latova M., Gaffarova G.</b> <i>Psychological parameters of intercultural competence in the development of students' personality</i>	196
46	<b>Saydullayeva S.T.</b> <i>Ijodiy xayol va nutq rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik xususiyatlari</i>	198
47	<b>Тошпулатов И.И.</b> <i>Психологические особенности развития научного потенциала в юношеском возрасте</i>	202
48	<b>Тиллашайхова Х.А., Холдорбоева.М</b> <i>Психологическое благополучие родителей как индикатор представлений ребенка о системе семейных взаимоотношений</i>	205
49	<b>Тиллашайхова Х.А., Маназарова.З.</b> <i>Социально-психологические характеристики социально-экономической компетентности студентов</i>	208

50	<b>Zakirova M.S.</b> <i>A.Adlerning nazariyasida nomukammallik tuyg'usi va nomukammallik kompleksi talqini</i>	212
51	<b>Zakirova M.S.</b> <i>Psixoanalizda mehr va ajralish muammolari va psixoterapiya usullari</i>	215
52	<b>Ilyasov B.Q.</b> <i>Zamonaviy psixologiyada shaxs rivojlanishi va integrativ yondashuvlar asosida harbiy aviatsiya mutaxassislarini tayyorlash va tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish mexanizmlarini takomillashtirish</i>	220
53	<b>Masharipova M.I.</b> <i>Maktabgacha yoshdagi bolalarda psixik jarayonlarning rivojlanish xususiyatlari</i>	223
54	<b>Masharipova D.E.</b> <i>Kasbiy obraz shakllanishining shaxsiy va kasbiy o'zgarishlarga ta'siri</i>	227
55	<b>Yadgarova D.B.</b> <i>Sportchilarning musobaqa oldi psixologik tayyorgarligini rivojlantirish</i>	230
56	<b>Vapayeva Y.B., Jumaniyozova N.R.</b> <i>Ko'zi ojiz bolalar va ota-ona munosabatlarining psixologik xususiyatlari</i>	232
57	<b>Gulumova M.O'</b> <i>Yosh avlodda ekologik ong, madaniyat va tarbiyani shakllantirish-jamiyat taraqqiyotining strategik omili</i>	234
58	<b>Bekchanova M.I.</b> <i>Menopauza o'tish davrlarining klassifikatsiyasi va psixologik xususiyatlari</i>	236
59	<b>Taxirova S.R.</b> <i>O'quvchilarda o'zini-o'zi baholashning faollikka psixologik ta'siri</i>	238
60	<b>Solieva F.O.</b> <i>Ijodiy xayolni rivojlantirishning amaliy imkoniyatlari (maktabgacha yoshidagi bolalar misolida)</i>	241
61	<b>Baxromjonova G.B.</b> <i>Sharq uyg'onish davri pedagogik tafakkur rivojida shaxs manaviy tarbiyasining pedagogik asoslari</i>	246
62	<b>Набиева Д.А., Комкова Е.И.</b> <i>Влияние агрессии воспитателя на детей дошкольного возраста</i>	250
63	<b>Nurmatov N.N., Normantova A.I., Kimsanboyeva K. Sh.</b> <i>Shaxsda frustratsion tolerantlikning ifodalanishi psixologik fenomen sifatida</i>	253
64	<b>Jalolova N.A., Turdiyeva M.J.</b> <i>Shaxs rivojlanishida integrativ yondashuvning roli</i>	256
65	<b>Saitmurodova M.B.</b> <i>Gordon Ollport asarlarida stereotiplarning psixologik talqini</i>	260
66	<b>Bozorov A.</b> <i>Rivojlanayotgan kattalar psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlari</i>	263
67	<b>Boltayev S.I.</b> <i>Keksa yoshdagi shaxslarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va psixologik farovonligi</i>	265
68	<b>Xodjayev S.B.</b> <i>Shaxs kamolotida mustaqil tafakkurni shakllantirishning psixologik muammolari</i>	268
69	<b>Sherboboyeva G.B., Normuminov B.B.</b> <i>Raqamli ta'lim muhitida pedagogning kasbiy rivojlanishiga web platformaning psixologik ta'siri</i>	274
70	<b>Botirova Z.D.</b>	278

	<i>Zamonaviy psixologiyada talaba shaxsining rivojlanishida oila va interaktiv yondashuvlarning o'rne</i>	
71	<b>Shamsiyeva M.R.</b> <i>Abu Nasr Farobiy asarlarida boshqaruv madaniyati konsepsiyasi va uning zamonaviy talqinlari</i>	281
72	<b>Kamolova Sh.U.</b> <i>Oilaviy muammolari bor talabalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishga kompleks yondashuv</i>	284
73	<b>Avazyazova D.Sh.</b> <i>Psixologiyada shaxs resurslari masalasi muammo sifatida</i>	287
74	<b>Karimjonova M.R.</b> <i>Shaxs taraqqiyotida psixotik, chegaralangan, nevrotik darajalar va psixoterapiya usullari</i>	290
75	<b>Shodmonova Sh.S., Zaynieva G.F.</b> <i>Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning samarali metodlari</i>	294
76	<b>Turg'unaliyeva H.M.</b> <i>Shaxsning kognitiv nazariyalarida tushunchalar tizimi nazariyasi talqini</i>	297
77	<b>Razzokberganova F.</b> <i>Shaxs rivojlanishining murakkab tizimi va integrativ psixologik yondashuvlar</i>	301
78	<b>Yulduz N.N., Shomurotova N.N.</b> <i>Shaxsdagi xulqiy og'ishlarning psixologik determinantlari</i>	306
79	<b>Xudaynazarov S.I.</b> <i>Talabalarda tanqidiy fikrlash shakllanishining to'rt bosqichli psixologik mexanizmlari modeli</i>	311
